

“SHOYIM BO‘TAYEVNING “ESKI ARAVA” QISSASIDA RAMZIY DETAL VA PREDMETNING FALSAFIY - PSIXOLOGIK TALQINI”

Abdullayeva Dilorom Nosirovna

Nizomiy nomidagi O‘MPU

O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shoyim Bo‘tayevning “Eski arava” qissasida ramziy detal va predmet obrazlarning falsafiy-psixologik funksiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda asardagi detal va predmetlar faqat tasviriy unsur sifatida emas, balki qahramon ruhiyati, ichki kechinmalari hamda asarning falsafiy qatlamini ochishga xizmat qiluvchi muhim poetik vosita ekanligi asoslab beriladi. Maqolada falsafiylik va psixologizmning badiiy uyg‘unligi, ramziy detallar vositasida inson, xotira, vaqt va ma’naviy tanazzul masalalarining ifodalanish xususiyatlari yoritiladi. Tahlil natijasida “Eski arava” qissasida falsafiy mazmun muallifning bevosita bayoni orqali emas, balki ramziy detal va predmet obrazlarning qahramon ruhiyati bilan uzviy bog‘lanishi asosida badiiylashtirilishi aniqlanadi.

Tayanch so‘zlar: Shoyim Bo‘tayev, “Eski arava”, falsafiy-psixologik talqin, ramziy detal, predmet obraz, psixologizm, falsafiylik, poetika, badiiy detal, ichki kechinma, ramziylik, qahramon ruhiyati

«ФИЛОСОФИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СИМВОЛИЧЕСКОЙ ДЕТАЛИ И СУБЪЕКТА В РАССКАЗЕ ШОЙИМА БУТАЕВА «СТАРАЯ КАРЕТА»»

Абдуллаева Дилором Носировна

Низамиский государственный университет Узбекистана

2 курс магистратуры, факультет узбекского языка и литературы

Аннотация: В данной статье анализируется философско-психологическая функция символической детали и предметных образов в повести Шойима Бўтаева «Eski arava». В исследовании обосновывается, что детали и предметные образы в произведении выступают не только как изобразительные элементы, но и как важные поэтические средства, раскрывающие внутренний мир героя, его

душевные переживания и философский слой текста. В статье освещаются художественная взаимосвязь философичности и психологизма, семантическая нагрузка предметных образов, а также особенности выражения проблем человека, памяти, времени и духовного упадка посредством символических деталей. В результате анализа установлено, что философское содержание повести художественно воплощается не через прямое авторское высказывание, а через органическую связь символической детали и предметных образов с психологией героя.

Ключевые слова: Шойим Бўтаев, «Eski arava», философско-психологическая интерпретация, символическая деталь, предметный образ, психологизм, философичность, поэтика, художественная деталь, внутреннее переживание, символизм, психология героя

“PHILOSOPHICAL-PSYCHOLOGICAL INTERPRETATION OF SYMBOLICAL DETAIL AND SUBJECT IN THE STORY “OLD CARRIAGE” BY SHOYIM BUTAEV”

Abdullaeva Dilorom Nosirovna

Nizami State University of Uzbekistan

2nd year master's student, Faculty of Uzbek Language and Literature

Abstract: This article examines the philosophical and psychological functions of symbolic details and object-images in Shoyim Bo‘tayeв’s novella *Eski arava*. The study argues that details and object-images in the work function not merely as descriptive elements, but as important poetic devices that reveal the protagonist’s inner world, emotional experience, and the philosophical layer of the text. The article highlights the artistic interrelation of philosophicity and psychologism, the semantic load of object-images, and the ways in which issues such as human existence, memory, time, and spiritual decline are expressed through symbolic details. The analysis demonstrates that the philosophical meaning of the novella is conveyed not through direct authorial statement, but through the organic connection between symbolic detail, object-images, and the protagonist’s psychological state.

Keywords: Shoyim Bo‘tayeв, *Eski arava*, philosophical-psychological interpretation, symbolic detail, object-image, psychologism,

philosophicity, poetics, artistic detail, inner experience, symbolism, character psychology

Hozirgi o‘zbek nasrida inson ruhiyatini bevosita psixologik tahlil, ichki monolog yoki muallif izohi orqali emas, balki predmet, detal, makon va ramziy belgilar orqali ochish tamoyili kuchayib bormoqda. Bu holat adabiy matnda predmetning vazifasini tubdan o‘zgartiradi: predmet endi faqat voqea sodir bo‘ladigan muhitni ko‘rsatuvchi yordamchi unsur emas, balki muallif konsepsiyasining badiiy tashuvchisiga aylanadi. Ayniqsa, falsafiy-psixologik yo‘nalishdagi nasriy asarlarda predmet va detal insonning ichki iztirobi, ma’naviy tanazzuli, tarixiy xotirasi va ijtimoiy ongndagi ziddiyatlarni ifodalashda muhim poetik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Shoyim Bo‘tayeovning “Eski arava” qissasi ana shunday ko‘p qatlamli badiiy matnlardan biridir.¹ Qissa tashqi ko‘rinishda Chichikovning o‘zbek qishloq-muhitiga kelishi, turli odamlar bilan uchrashuvi, dehqonlar ro‘yxati, mehmondorchilik va muloqotlar atrofida qurilgandek tuyuladi. Biroq asarning ichki poetik tizimi ancha chuqur: unda arava, yo‘l, ot, dasturxon, mehmonxona, ro‘yxat, shamol kabi predmet va detallar orqali jamiyat, inson, xotira, ma’naviy qadriyat masalalari ochiladi. Qissadagi Pavel Ivanovich Chichikov obrazi bevosita Gogol an’anasiga ishora qiladi,² ammo Bo‘tayeov bu obrazni shunchaki ko‘chirmaydi; uni yangi ijtimoiy-madaniy muhitda qayta talqin qiladi. Qissa matnining boshidan oxirigacha Chichikovning eski tasavvurlari, hisob-kitobga asoslangan nigohi, “foyda” va “mulk” mezonidagi tafakkuri o‘zbekona qadriyat, mehmondo‘stlik, dehqonchilik va mahalliy ruhiyat bilan to‘qnashadi.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, “Eski arava” qissasi ko‘pincha Gogol an’anasi bilan bog‘liq satirik-parodik matn sifatida talqin qilinishi mumkin. Ammo bunday yondashuvning o‘zi yetarli emas. Asarni faqat Chichikov obrazining o‘zbek muhitidagi “g‘aroyib” ko‘rinishi sifatida o‘qish qissa poetikasini soddalashtirib yuboradi. Chunki Sh. Bo‘tayeov matnida asosiy badiiy yuk voqealardan ko‘ra detallar zimmasiga yuklangan. Shuning uchun mazkur maqolada “Eski arava” qissasi predmetlar poetikasi va ramziy detal tizimi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

Badiiy adabiyotda detal kichik tasviriy birlik sifatida ko‘rinsa-da, u ko‘pincha asarning eng muhim semantik tugunlaridan biriga aylanadi.³ Detalning badiiy kuchi uning hajmida emas, balki ma’no zichligida

¹ Bo‘tayeov Sh. Eski arava. Qissa. Ziyoz elektron kutubxonasi. — B. 126–154.

² Gogol N. V. O‘lik jonlar. Roman-poema

³ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. — Toshkent: Fan, 2007. — B. 82–90.

namoyon bo‘ladi. Oddiy buyum, harakat, imo-ishora yoki muhit unsuri matn ichida takroriy, urg‘uli va konseptual vazifa bajara boshlasa, u ramziy detal darajasiga ko‘tariladi.⁴

Predmet obraz esa bundan ham kengroq tushunchadir. U voqelikdagi aniq narsa bo‘la turib, badiiy matnda inson, jamiyat, tarix, xotira yoki ruhiy holatni ifodalovchi obrazga aylanadi. Bunda predmetning moddiy shakli saqlanadi, ammo uning ma‘nosi kengayadi. Masalan, arava — transport vositasi; ammo badiiy matnda u yo‘l, taqdir, harakat, tarixiy yuk, eskilik yoki ruhiy turg‘unlik ramzi bo‘lishi mumkin. Demak, predmet obraz moddiylik va ma‘naviylik, tashqi narsa va ichki ma‘no o‘rtasidagi badiiy ko‘prikdir.

Falsafiy-psixologik talqin doirasida detalning ahamiyati yanada ortadi. Chunki falsafiy-psixologik nasrda muammo ko‘pincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri bayon qilinmaydi. Muallif insonning ichki ziddiyatini, tafakkurdagi sinishni, ma‘naviy iztirobni yoki jamiyatdagi ruhiy yemirilishni predmetlar orqali ko‘rsatadi. Bunday holatda detal oddiy tasvir emas, balki ongning badiiy modeli vazifasini bajaradi.

“Eski arava” qissasida aynan shu holat kuzatiladi. Arava, yo‘l, ot, ro‘yxat, dasturxon va shamol alohida-alohida buyum yoki hodisa sifatida emas, bir-birini to‘ldiruvchi ramziy tizim sifatida ishlaydi. Bu tizim Chichikov psixologiyasini ham, o‘zbek muhitining ichki murakkabligini ham, muallifning inson va jamiyat haqidagi falsafiy qarashlarini ham ochadi.

“Eski arava” qissasining muhim xususiyatlaridan biri uning intertekstual tabiatidir. Asardagi Pavel Ivanovich Chichikov nomi va obraz tabiatining o‘zi N. V. Gogolning “O‘lik jonlar” asariga ishora qiladi. Biroq Bo‘tayev Chichikovni oddiy adabiy eslatma yoki parodik personaj sifatida olib kirmaydi. U Chichikov obrazini boshqa tarixiy-madaniy muhitga joylashtirib, uning psixologik va falsafiy imkoniyatlarini yangidan ochadi.

Gogol matnida Chichikov “o‘lik jonlar”ni sotib olish orqali jamiyatdagi byurokratik, axloqiy va ma‘naviy tanazzulni fosh qiluvchi obrazdir. Bo‘tayevda esa Chichikov o‘zbek qishloq-madaniy muhitiga kirib keladi. Shu sababli obrazning mazmuni kengayadi: u endi faqat bir davr yoki bir jamiyatdagi firibgarlik ramzi emas, balki har qanday muhitga moslashishga urinadigan, insonni manfaat va hisob mezonida ko‘radigan universal ruhiy tip sifatida namoyon bo‘ladi.

⁴ Lotman Yu. M. **Struktura xudojestvennogo teksta**. — Moskva: Iskusstvo, 1970. — Badiiy matn strukturasi va belgi tizimi haqidagi qarashlar.

Qissada Chichikovning mahalliy odamlar bilan suhbatlari, uning mehmondorchilik, dasturxon, dehqonlar, ro‘yxat va obro‘ masalalariga munosabati uning ichki mohiyatini ochadi. U tashqi tomondan kuzatuvchan, muloyim, moslashuvchan ko‘rinsa-da, ichki jihatdan dunyoni foydalanish mumkin bo‘lgan predmetlar yig‘indisi sifatida qabul qiladi. Ana shu jihat uning ruhiy begonalashuvini belgilaydi.

Muhim nuqta shuki, Bo‘tayevo Chichikovni yangi muhitda fosh etish bilan birga, mahalliy muhitning o‘zini ham sinovdan o‘tkazadi. Qissada o‘zbekona mehmondo‘stlik, obro‘, dasturxon, izzat-hurmat kabi qadriyatlar bor. Ammo ular yonida rasmiyatchilik, mansabparastlik, o‘zini ko‘rsatish, hisob-kitobga moyillik ham yashiringan. Demak, Chichikov begona obraz bo‘lsa-da, u mahalliy muhitdagi ayrim yashirin nuqsonlarni yuzaga chiqaruvchi “ko‘zgu” vazifasini ham bajaradi.

Shuning uchun qissani faqat “begona odamning o‘zbek qishlog‘iga kelishi” haqidagi satirik hikoya sifatida tushunish yetarli emas. Bu asarda begona obraz orqali mahalliy ong, jamiyat va qadriyatlar ham qayta tekshiriladi.

Qissa sarlavhasidagi “eski arava” detali butun asarni talqin qilish uchun asosiy kalit hisoblanadi. Arava tashqi jihatdan harakat vositasi, yo‘lga chiqish, ko‘chish, safar va manzilga yetish belgisi. Ammo “eski” sifati bu harakatning mazmunini o‘zgartiradi. Chunki eski arava harakatda bo‘lsa ham, unda yemirilish, kechikish, zamondan ortda qolish, og‘irlik va turg‘unlik ma’nalari mavjud.

Demak, arava ramzi ichki ziddiyatga ega: u bir vaqtning o‘zida ham harakatni, ham turg‘unlikni bildiradi. Aynan shu ziddiyat Chichikov obrazining mohiyatiga mos keladi. Chichikov ham harakatda: u keladi, yuradi, suhbatlashadi, reja tuzadi. Ammo uning ichki dunyosi o‘zgarmaydi. U yangi makonga keladi, lekin eski manfaatparast tafakkur bilan yashaydi. Shu ma’nodan eski arava Chichikov ruhiyatining predmetlashgan shaklidir.

Aravaning yana bir muhim ma’nosi — tarixiy yuk. Inson ba’zan o‘z o‘tmishini, eskirgan tasavvurlarini, manfaatga asoslangan qarashlarini tashlab ketolmaydi. U o‘zini yangilik sari ketayotgandek his qiladi, ammo aslida eski aravasini sudrab yuradi. Bo‘tayevo qissasida arava ana shu ruhiy va ma’naviy yukning timsoliga aylanadi.

Qissa oxirida arava bilan bog‘liq manzara ayniqsa muhim. Finalda shamol, daraxt, silkinish, arava va Chichikovning holati bir-biriga bog‘lanib, butun asar davomida yig‘ilgan ramziy ma’nalarni yakunlaydi. Arava endi oddiy predmet emas, balki qahramonning qutulib bo‘lmaydigan

ichki taqdiri sifatida ko‘rinadi. U qayerga bormasin, qanday muhitga tushmasin, eski arava uning ortidan keladi. Bu esa qissaning falsafiy xulosasini kuchaytiradi: inson tashqi makonni o‘zgartirishi mumkin, ammo ichki tafakkurini o‘zgartirmasa, u baribir eski yo‘lidan chiqolmaydi.

Yo‘l obrazi qissada arava ramzi bilan uzviy bog‘liq. Yo‘l — faqat manzilga eltuvchi makon emas, balki insonning ichki holatini tekshiruvchi sinov maydonidir. Adabiy an’anada yo‘l ko‘pincha izlanish, o‘zgarish, ma’naviy ulg‘ayish, taqdir yoki tanlov ramzi sifatida talqin qilinadi. “Eski arava”da esa yo‘l ana shu an’anaviy ma’nolar bilan birga kinoyaviy mazmun ham oladi.

Chichikov yo‘lga chiqqan odam, ammo uning yo‘li ma’naviy izlanish yo‘li emas. U o‘zini yangi muhitga moslashtiradi, odamlarni kuzatadi, vaziyatni o‘rganadi, lekin bu kuzatuvning maqsadi haqiqatni anglash emas, foyda topishdir. Shuning uchun uning harakati ichki yangilanishga olib kelmaydi.

Bu yerda Bo‘tayevning falsafiy fikri aniq: harakat har doim ham taraqqiyot emas. Inson ko‘p yurishi, ko‘p ko‘rishi, turli muhitlarga kirishi mumkin, ammo agar uning tafakkur mezoni o‘zgarmasa, bu harakat faqat eski niyatning yangi makonda davom etishidan iborat bo‘ladi.

Yo‘l detali Chichikov ruhiyatidagi chegarani ko‘rsatadi. U tashqi yo‘ldan boradi, lekin ichki yo‘lni bosib o‘tolmaydi. U makonni kesib o‘tadi, lekin o‘z-o‘zini yengolmaydi. Shu sababli yo‘l qissada falsafiy-psixologik sinov vazifasini bajaradi.

Ot obrazi qissada arava bilan birga talqin qilinishi kerak. Chunki ot aravani tortuvchi kuchdir. Badiiy an’anada ot ko‘pincha qudrat, erkinlik, hayotiy energiya, harakat va jasorat ramzi sifatida keladi. Ammo “Eski arava”da ot o‘z mustaqil erkinligida emas, balki aravaga qo‘shilgan, unga bo‘ysundirilgan holda ko‘rinadi.

Bu holat ramziy jihatdan juda muhim. Agar arava eskirgan tafakkur va ruhiy turg‘unlik ramzi bo‘lsa, ot ana shu eskilikni harakatlantiruvchi kuchdir. Demak, kuchning o‘zi ijobiy hodisa emas; u qanday maqsadga xizmat qilayotganiga qarab baholanadi. Insondagi aql, iroda, tadbirkorlik, harakat va moslashuvchanlik ham agar eskirgan manfaatparast tafakkurga xizmat qilsa, ma’naviy yuksalishga emas, ruhiy qaramlikka olib keladi.

Chichikov obrazi aynan shunday psixologik paradoksni ko‘rsatadi. U faol, serharakat, kuzatuvchan, vaziyatga moslashuvchan. Ammo bu fazilatlar ezgu maqsadga emas, foyda va manfaatga xizmat qiladi. Shu bois

qissada ot obrazi yashirin tarzda inson kuchining ma'naviy mezondan ajralib qolishi muammosini ochadi.

Qissada mehmondorchilik, dasturxon, choy, ovqat, suhbat va o'zbekona izzat-hurmat epizodlari muhim poetik vazifa bajaradi. Bu detallar asarga milliy kolorit berish uchungina kiritilmagan. Aksincha, ular qadriyatlar to'qnashuvi yuz beradigan badiiy maydonni tashkil etadi.

Dasturxon o'zbek madaniyatida faqat ovqatlanish joyi emas; u hurmat, mehmondo'stlik, baraka, ochiqlik va insonlararo ishonch belgisi hisoblanadi. Qissada esa dasturxon Chichikov psixologiyasini fosh qiluvchi maydonga aylanadi. Chunki u mehmondorchilikni qadriyat sifatida emas, vaziyat sifatida ko'radi. Uning nigohida insoniy munosabatlar ham ma'lum darajada foydalanish mumkin bo'lgan imkoniyatga aylanadi.

Bu yerda ikki xil ong to'qnashadi. Birinchi ong — qadriyatga asoslangan ong: mehmonni hurmat qilish, dasturxon yozish, odamgarchilik ko'rsatish. Ikkinchi ong — manfaatga asoslangan ong: vaziyatdan foydalanish, odamlarni o'rganish, ularning zaif joyini topish. Shoyim Bo'tayevning mahorati shundaki, u bu to'qnashuvni to'g'ridan-to'g'ri muallif izohi bilan emas, predmetlar va muloqot vaziyatlari orqali beradi.

Dasturxon qissada inson ruhiyatining axloqiy sinov nuqtasiga aylanadi. Kimdir dasturxon orqali o'z saxovatini, kimdir obro'sini, kimdir ichki maqsadini, kimdir esa ma'naviy bo'shlig'ini namoyon qiladi. Demak, predmet oddiy maishiy detal darajasidan chiqib, psixologik mazmun vositasiga aylanadi.

Qissadagi eng kuchli predmet-semantik birliklardan biri — ro'yxatdir. Ro'yxat tashqi jihatdan ma'muriy-hujjatli predmet. Ammo badiiy matnda u insonni nom, raqam, birlik, hisob obyektiga aylantiruvchi ramziy vosita sifatida ishlaydi.

Gogol an'anasida "o'lik jonlar" muammosi insonning qog'ozdagi mavjudlikka aylanishi, jamiyatning byurokratik va axloqiy yemirilishi bilan bog'liq edi. Bo'tayevda esa bu muammo yangi sharoitda qayta talqin qilinadi. Dehqonlar ro'yxati, xo'jalik, hisob-kitob, reja va tashkiliy muomala orqali insonning tirikligi bilan uning rasmiy mavjudligi o'rtasidagi tafovut ochiladi.

Bu yerda asosiy falsafiy savol tug'iladi: inson qachon tirik mavjudot, qachon esa "ro'yxatdagi birlik"ka aylanadi? Bo'tayev matnida o'liklik biologik emas, ma'naviy-psixologik hodisa sifatida talqin qilinadi. Inson tirik bo'lishi mumkin, lekin uning nomi, mehnati, qadri, ruhi faqat hisob-

kitob mezonida baholansa, u ma'naviy jihatdan "o'lik jon" maqomiga tushadi.

Ro'yxat detali aynan shu ma'noda qissaning eng keskin ijtimoiy-falsafiy nuqtalaridan biridir. U inson qadrsizlanishini ko'rsatadi. Chichikovning ro'yxatga qiziqishi uning odamni inson sifatida emas, hujjatdagi imkoniyat sifatida ko'rishini ochib beradi. Bu esa asarning psixologik drammatizmini kuchaytiradi.

Qissadagi sarimsoqqiyoz detali Nishonboy Xurzamonovich obrazini ochishda muhim ramziy-psixologik vazifa bajaradi. Muallif bu detal orqali bir vaqtning o'zida xalqona maishiy muhitni, ijtimoiy tabaqalanish sezgisini va qahramonlar orasidagi yashirin psixologik masofani ko'rsatadi. Nishonboy Xurzamonovichning sarimsoqqiyoz hidini Chichikovga sezdirmoqchi bo'lishi, u o'zini "tabiiy", "xalqona" va "yerga yaqin" ko'rsatish orqali mehmonning ichki munosabatini sinaydi. Shu bilan birga, bu harakat Chichikovning begonaligini ham fosh qiladi: u xalqona muhitga kiradi, biroq uning hidini, tabiiyligini va bevosita jismoniy ta'sirini qabul qila olmaydi. Demak, sarimsoqqiyoz qissada xalqona tabiiylik bilan soxta madaniy noziklik, mahalliy muhit bilan begona ong, sezgi bilan yashirin ijtimoiy hisob-kitob o'rtasidagi ziddiyatni ochuvchi ramziy detalga aylanadi.

Qissadagi mehmonxona, xona, tunash, joylashish kabi detallar ham alohida e'tiborga loyiq. Mehmonxona — vaqtinchalik makon. Inson bu yerda yashamaydi, faqat to'xtab o'tadi. Shu sababli mehmonxona qissada Chichikovning ruhiy holatiga mos keladi. U ham biror muhitga chinakam tegishli emas; u ham vaqtincha kiradi, kuzatadi, foydalanadi va ketishga tayyor turadi.

Mehmonxona obrazi begonalik hissini kuchaytiradi. Chichikov yangi muhitda mehmon sifatida ko'rinsa-da, uning ichki pozitsiyasi bundan ham murakkabroq: u nafaqat mehmon, balki kuzatuvchi, hisoblovchi, o'z manfaatini izlovchi begona onmdir. Shu sababli mehmonxona qissada vaqtinchalik turar joy emas, balki qahramonning ildizsizligi va ruhiy beqarorligining predmetlashgan shakliga aylanadi.

Bu detal qissaning falsafiy qatlamini chuqurlashtiradi. Inson qayerdadir tunashi, mehmon bo'lishi, suhbat qurishi mumkin. Ammo agar u ma'naviy jihatdan ochilmasa, boshqalar bilan chinakam insoniy munosabatga kirmasa, u har qanday makonda begona bo'lib qolaveradi.

Qissa finalida shamol detali kuchli ramziy vazifa bajaradi. Shamol — beqarorlik, silkinish, o'zgarish, xavotir va ichki notinchlik belgisi. Asar

oxirida shamolning kuchayishi, atrof-muhitning bezovta tus olishi Chichikov ruhiyatidagi notinchlik bilan uyg'unlashadi.

Finaldagi shamol oddiy tabiat tasviri emas. U butun qissa davomida yig'ilgan ruhiy va falsafiy ziddiyatlarning tashqi ifodasidir. Shamol go'yo eski aravani, eski tafakkurni, eski munosabatlarni larzaga keltiradi. Ammo bu larza to'liq yangilanishga olib keladimi yoki yo'qmi — asar buni ochiq qoldiradi.

Shu jihatdan shamol detali qissaning ochiq finalini yaratadi. U aniq javob bermaydi, balki o'quvchini savol bilan yuzlashtiradi: eski arava sindimi yoki yana yo'lga tushdimi? Chichikov o'zgardimi yoki o'z eski niyati bilan ketdimi? Jamiyat o'zini angladimi yoki yana rasmiyatchilik va manfaat yo'lida davom etadimi?

Chichikov obrazining psixologik mohiyati uning dunyoni qanday ko'rishida namoyon bo'ladi. U odamlarni, predmetlarni, vaziyatlarni, suhbatlarni, mehmondorchilikni va hatto qadriyatlarni ham ma'lum manfaat mezonida baholashga moyil. Bunday ongda insoniy munosabatlar tabiiy samimiyatdan ajralib, hisob-kitob vositasiga aylanadi.

Chichikov begona muhitga kelganida, u bu muhitni chinakam tushunishga urinmaydi. U uni o'z sxemasiga moslashtirishga harakat qiladi. Bu psixologik jihatdan juda muhim. Chunki begonalashgan ongning asosiy belgisi — boshqani o'z holicha qabul qila olmaslikdir. Bunday ong har qanday voqelikni o'z manfaatiga xizmat qiladigan shaklda qayta talqin qiladi.

Qissadagi kulgili, kinoyaviy va g'aroyib epizodlar ortida ana shu jiddiy psixologik muammo turadi. Chichikov kulgili ko'rinadi, ammo uning kulgililigi xavfsiz emas. U ma'naviy bo'shliq, insonni predmetlashtirish, qadriyatlarni hisobga aylantirish kabi xavfli jarayonlarni bildiradi.

Shoyim Bo'tayev Chichikovni butunlay yovuz obraz sifatida emas, balki ma'naviy jihatdan eskirgan, ichki mexanizmi manfaat bilan ishlaydigan ruhiy tip sifatida ko'rsatadi. Bu esa qissaning psixologik chuqurligini ta'minlaydi.

Shoyim Bo'tayevning "Eski arava" qissasi hozirgi o'zbek nasrida ramziy detal va predmet obrazlarning falsafiy-psixologik imkoniyatlarini namoyon etuvchi muhim asarlardan biridir. Qissada arava, yo'l, ot, dasturxon, ro'yxat, mehmonxona va shamol kabi detallar voqeani bezovchi oddiy unsurlar emas, balki inson ruhiyati, jamiyat ongidagi ziddiyatlar va tarixiy-ma'naviy jarayonlarni ifodalovchi murakkab badiiy belgilar sifatida ishlaydi.

Asarning markaziy ramzi bo'lgan "eski arava" Chichikov ruhiyatidagi eskirgan manfaatparast tafakkurni, ma'naviy turg'unlikni va insonning o'z ichki yukidan qutula olmaslik holatini ifodalaydi. Yo'l detali tashqi harakat bilan ichki o'zgarish o'rtasidagi tafovutni ochadi. Ot obrazi kuch va maqsad muammosini, dasturxon qadriyatlar sinovini, ro'yxat insonning hujjatga aylanishini, mehmonxona begonalik va vaqtinchaliklikni, shamol esa ruhiy bezovtalik va tarixiy silkinishni bildiradi.

Qissada Gogolning Chichikov obrazi o'zbek ijtimoiy-madaniy muhitida qayta talqin qilinadi. Biroq bu qayta talqin parodiya bilan cheklanmaydi. Bo'tayev Chichikov orqali insonni manfaat, hisob-kitob va rasmiy mavjudlikka bo'sundiruvchi ong tipini fosh qiladi. Shu bilan birga, mahalliy muhitdagi ziddiyatlar ham ochiladi. Natijada asar satirik, intertekstual, falsafiy va psixologik qatlamlarni birlashtirgan murakkab badiiy matnga aylanadi.

Demak, "Eski arava" qissasida ramziy detal va predmetning falsafiy-psixologik talqini Shoyim Bo'tayev nasrining muhim poetik belgilaridan biridir. Muallif predmetlar orqali ko'rinadigan voqelikdan ko'ra ko'rinmaydigan ruhiy holatlarni, tashqi harakatdan ko'ra ichki turg'unlikni, maishiy vaziyatdan ko'ra falsafiy umumlashmani ilgari suradi. Shu jihatdan "Eski arava" hozirgi o'zbek nasrida predmet poetikasi, intertekstual obraz va falsafiy-psixologik talqin masalalarini o'rganishda muhim manba bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bo'tayev Sh. Eski arava. Qissa. Ziyouz elektron kutubxonasi. — B. 126–154.
2. Gogol N. V. O'lik jonlar. Roman-poema. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.
3. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. — Toshkent: Fan, 2007. — B. 82–90.
4. Lotman Yu. M. Struktura xudojestvennogo teksta. — Moskva: Iskusstvo, 1970.
5. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. — Toshkent: Akademnashr, 2010.
6. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.
7. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
8. Normatov U. Ijod sehri. — Toshkent: Sharq, 2007.

9. Baxtin M. M. Voprosy literatury i estetiki. — Moskva: Xudojestvennaya literatura, 1975.

10. Tomashevskiy B. V. Teoriya literatury. Poetika. — Moskva: Aspekt Press, 1996.